

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020. F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

VAXOBOVA MARG‘UBA ABDUXAMIDOVNA

YANGI O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR
MILLIY G‘OYA YUKSALISHIDAGI MUHIM OMIL

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of Philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Vaxobova Marguba Abduxamidovna

Yangi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi islohotlar milliy g‘oya
yuksalishidagi muhim omil.....5

Вахобова Маргуба Абдухамидовна

Реформы в системе высшего образования нового Узбекистана – важный
фактор роста национальной идеи.....23

Vakhobova Marguba Abdukhamidovna

Reforms in the higher education system of the new Uzbekistan
as an important factor in the development of the national idea.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....51

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

VAXOBOVA MARG‘UBA ABDUXAMIDOVNA

YANGI O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR
MILLIY G‘OYA YUKSALISHIDAGI MUHIM OMIL

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fal900 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Xakimov Nazar Hakimovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Narkulov Suxrob Dusmuratovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "1" mart soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (601 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil "17" fevral dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ekologik, tengsizlik, qashshoqlik va ishsizlik, shuningdek madaniy qarama-qarshiliklar bartaraf etishga oid muammolarni hal etishda ta'lim asosiy vositalardan bo'lib xizmat qiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni ommalashtirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar orqali ekologik muammolarga innovativ yechimlarni yaratish, inson huquqlari haqidagi bilimlarni targ'ib qilish, raqamli savodxonlikni ta'minlash, ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantiruvchi dasturlarni amalga oshirish, millatlararo hamkorlik va global birdamlikni shakllantirish, tinchlikparvarlikni targ'ib qilishga qaratilgan ta'lim – bu dunyoning murakkab muammolarini hal qilish uchun eng kuchli quroldir. Shuning uchun oliy ta'limning jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sirini, ta'limining missiyasi, g'oyasi, transformatsiyasi natijasida innovatsion shakllarining milliy g'oya yuksalishi hamda shaxs ma'naviy axloqiy kamolotini shakllantirishdagi o'rni asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fan va yetakchi ilmiy markazlarida, xalqaro tashkilotlarning dasturlari, fan va ta'lim rivojiga qaratilgan ma'ruzalarda oliy ta'limning jamiyatdagi roli, kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarning yangi yo'nalishlarini belgilashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim turli sohalarida yuqori malakali mutaxassislar, kadrlarni yetishtirib berish orqali yangi ixtiro va texnologiyalar yaratadi, kishida tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga, mas'uliyatli fuqarolarni shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Shu sababli oliy ta'lim tizimidagi transformatsion o'zgarishlar va innovatsion taraqqiyotini belgilovchi strategik islohotlarning oliy ta'limni rivojlantirish va uning sifatini oshirishdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ochib berish, ta'lim va milliy g'oya uyg'unligini ta'minlash omillarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish sohasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. “Umuman, Yangi O'zbekistonni qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish, uning iqtisodiyoti barqaror o'sayotgan, inson kapitali yuqori bo'lgan raqobatbardosh demokratik mamlakatlar qatoridan joy olishini ta'minlash g'oyalari oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarimizning ham tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi. ... ma'rifatparvar jadid bobolarimizning “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g'oyasini sobitqadam hayotiy shiorimizga aylantirib, bilim va ma'rifat, dunyoviy taraqqiyotga erishish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilishimiz zarur”¹. Shu nuqtai nazardan taraqqiyot strategiyasidagi oliy ta'lim tizimining vazifalarini ochib beruvchi falsafiy xususiyatlarini aniqlash, oliy ta'limning jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonga ta'siri omillari ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2024. – Б.176

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 9-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’lim tizimi haqida olimlar qator izlanishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, XIX-XX asrda oliy ta’lim tizimi xususan universitetlar borasida Yevropa faylasuflaridan D.Bell, K.Yaspers, V.Gumbolt, J.Nyuman, X.Ortega Gasset, K.Mankgeym, A.Uaytxed, J.Dyui kabi olimlarning izlanishlari diqqatga sazovor. Ular ta’lim tizimi, oliy ta’lim tizimini isloh qilish borasida ilmiy-nazariy fikrlarini bayon etadi va oliy ta’lim tizimining yangilanishiga katta hissa qo‘shadi².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan A.Amaral, G.K.Ashin, I.V.Zaxarova va A.Korniyenko, V.A.Lavriyenko kabi olimlar universitetlarning tarixiy rivojlanishi va ularning hozirgi davrda duch kelayotgan muammolarini chuqur tahlil qilganlar³.

² Белл Д. Социальные рамки информационного общества // Новая технократическая волна на Западе. - Москва: Прогресс, 1986. - С.330-342; Ясперс К. Образование как действие. 2006; Humboldt W.v. (1794/95). Theorie der Bildung des Menschen. In A. Flitner & K. Giel. (eds.). (2010). Wilhelm von Humboldt. Werke in fünf Bänden. Bd. I. (pp. 234-240). WBG.; J. Nyuman (John Henry Newman); Ortega Gasset X. Миссия в университете. Минск. БГУ. 2005г. - 104 с.; К.Мankgeym(1943). The Democratic Reconstruction of Education. В книге Diagnosis of Our Time. Лондон: Kegan Paul, Trench, Trubner & Co.; Уайтхед, А. "Наука и современный мир. Избранные работы по философии (1990); Dewey J. (1916). Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. New York: Macmillan;

³ А. Amaral. "The Changing Academic Profession: The Challenges to Academic Work and Practices"; Ашин Г.К. Сравнительный анализ современных моделей элитного образования в развитых странах Европы и Северной Америки; Захарова, В. (2013). Информационные технологии в ДОУ: Программа "Информационные

O‘zbekistonda ta’lim tizimi masalalari M.Behbudiy, A.Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov kabilar tomonidan tahlil etilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va ta’limning zamonaviy muammolariga yechim topishga qaratilgan ta’lim tizimi masalalari O.Fayzullayev, S.Shermuhammedov, E.Yusupov, J.Tulenov, M.Quronov, I.Saifnazarov, G.T.Maxmudova, Z.Davronov, Z.Qodirova, N.H.Hakimov, D.T.Amridinova kabi olimlarning qator ilmiy izlanishlarida aks etgan. Shuningdek, yosh olimlardan U.Qudratova, Yu.Namazova tadqiqotlarida ta’lim tizimining turli jihatlarini tadqiq etilgan⁴. Mamlakatimiz tadqiqotchilari orasida ta’limni zamonaviylashtirish masalalariga Sh.Sh.Sadikov, N.R.Asadullina, Z.Sh.Tuxtayeva, N.X.Rahimova ilmiy tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tilgan. Ta’limning Sharq va G‘arb ilmiy merosidagi o‘rni, uning jamiyat taraqqiyotining asosini shakllantiruvchi hodisa ekanligi B.To‘rayev, S.Choriyevning ilmiy tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etgan⁵.

Yuqorida nomlari tilga olingan va boshqa bir qator o‘zbek, shuningdek, dunyo olimlarining ilmiy tadqiqotlari dissertatsiyani yozish mobaynida inobatga olindi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlardan farqli ravishda ta’limni fenomenal tushunish lozimligi, oliy ta’limning funksiyalari, metodologiyasi va aksiologiyasini maqbullashtirish, oliy ta’limni yanada rivojlantirishning konseptual asoslarini yangilashga diqqat-e’tibor qaratilgan.

технологии как средство совершенствования системы здоровьесбережения в ДОУ" (Russian Edition). Издательство.; Корниенко А. А., Погукаева Н. В. Научная тема как элемент структурной схемы современной науки //Известия Томского политехнического университета. Инжиниринг георесурсов. – 2010. – Т. 316. – №. 6.; Лавриненко В. Н. Основы философии: Учебник и практикум для СПО. 8-е изд., пер. и доп. — Москва: Юрайт, 2016. - 416 с.

⁴ Махмудхужа Бехбудий. Танланган асарлар. 3-нашри. -Т.: “Маънавият”, 2006; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар.5-жилдлик (2001–2010); Abdurashidxonov, M. (1911). *Tarixi Qavm Turk*. A work on the history of Turkic peoples, contributing to the cultural and educational reform movement in Central Asia.; Fayzullayev O. Philosophy and methodology of subjects. – 2006.; Yusupov E.H. Smart-ta’lim konsepsiyasi va uning asosiy elementlari //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 176-178.; Tulenov J. National values and social development //T., “Uzbekistan. – 1999.; Quronov M. Scientific and pedagogical bases of national education in general secondary schools of Uzbekistan: Ped. fan. dok... diss. – 1998.; Saifnazarov I. Xususiy ta’lim rivoji ta’lim sifatini oshirishning muhim omili / Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g‘oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini yaratish nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent, 2019. – Б. 14-16.; Махмудова Г.Т. От образования к мировоззрению: ценностная ориентация молодежи //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 32. – С. 179-184.; Davronov S. Z. Problems in the system of assigning allowances in Uzbekistan and the ways of their solution //International Journal of Management IT and Engineering. 2020. – Т. 10. – №. 3. – С. 35–46.; Хакимов Н. Х., “Реформирование высшего образования в контексте нового этапа развития Узбекистана” Аудиторские ведомости 3 (2024): 210-215.; Amridinova D. T. The Role of Digital Economy and its Impact on Online Education in Uzbekistan //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 64–70; Qodirova Z. Dars jarayonida ta’lim texnologiyalarini samarali foydalanishni tashkil qilish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 45-50.; Kudratova U. Fan va ta’lim integratsiyasi jarayonida o‘qituvchining roli // Хотин-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. – Toshkent, 2019. – В. 344-346;

⁵ Садыков Ш. Ш. Основные направления совершенствования высшего образования республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации экономики // Открытое образование. 2021. №1.; Асадуллина Н.Р., Павлов К.В. Модель инновационного развития высшего образования в условиях цифровизации экономики узбекистана // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2023. №6-2.; Тўхтаева З.Ш., Каноатова Д.С., Жамолов Ж.Т. Интеграционные процессы в развитии системы высшего образования в узбекистане // Вестник магистратуры. 2019. №4-3 (91); Рахимова Д.У., Убайдуллаева Д.О., Жамолидинова З.М. Трудности внедрения новых педагогических технологий в учебный процесс // Теория и практика современной науки. 2018. №6 (36); Тўраев Б.О. Абу Райхон Беруний, – Тошкент: Тафаккур, 2009. – 96 б.; Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври. Европа фалсафаси. - Тошкент: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 112 б

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining II.3-bandi "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning zamonaviy, nazariy-metodologik muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning milliy g'oyani yuksaltirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Uchinchi Renessans poydevori yaratilishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini hamda Markaziy Osiyoda oliy ta'limning vujudga kelishi va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

oliy ta'limning ijtimoiy institut sifatida shakllanish dinamikasi va genezisini asoslab berish;

zamonaviy oliy ta'lim tizimining faoliyati, maqsad va vazifalar uyg'unligini tadqiq etish;

O'zbekistonda oliy ta'limdagi islohotlarning milliy yuksalishdagi ahamiyatini asoslash;

globallashtirish jarayonida oliy ta'lim jarayonining ijtimoiylashtirish xususiyatlarini va universitetning yangi modellari shakllanishi va milliy ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni tahlil etish;

ochiq oliy ta'lim tizimining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, oliy ta'limning zamonaviy qiyofasi va kelajakdagi ko'rinishini asoslab berish;

oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, ularning ustuvor yo'nalishlari hamda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda milliy g'oya masalasining aks etishi, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan dolzarb vazifalarda mafkuraviy omillarning ahamiyati oliy ta'limning ma'rifat o'chog'i sifatidagi o'rnini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil va sotsiologik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi oliy ta'limni isloh etishga oid insonga o'z salohiyatini namoyon qilish imkoniyat yaratishi, ta'lim uchun qulay muhit berilishini ifoda etishi kabi maqsadlarning milliy g'oyaning antropotsentristik (ilm-fan, madaniyat va san'atni gumanistik qadriyatlar bilan sug'orish) tamoyillariga uyg'unlashuvi hamda Renessans davriga xos xususiyat (inson huquq va erkinliklarini ta'minlash) va ilm-fan va ma'rifatning qadriyat darajasiga ko'tarilganligi asoslangan;

jamiyatda "uchinchi va to'rtinchi avlod universitetlari" ochiq tizimga xos faoliyat (ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish), tizimlilik (zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy

fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash), in'ikos (davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar yoshlarni kamol toptirish) kabi asosiy g'oyalarning milliy g'oya yuksalishi hamda shaxs ma'naviy axloqiy kamolotini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan;

sun'iy intellektni oliy ta'limga joriy etishda maqsadni belgilash (o'quv jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish), ma'lumotlarni yig'ish va analiz qilish (to'plangan ma'lumotlar asosida modellarni ishlab chiqish va prognoz qilish), xodimlarning malakasini uzluksiz oshirib borish omillari ta'lim tizimini insonparvarlashuviga xizmat qilishi mantiqiy dalillangan;

virtual universitetlarning intellektual konstruktorlik, raqamli laboratoriya, tarmoqli tadqiqot almashinuvi, modellashtirish kabi imkoniyatlarini aniqlash asosida ularning texnika va kadr resurslarini bir joyga to'plash, mehnat bozori va ta'lim tizimining uyg'unligini ta'minlash, ta'lim eksportiga oid innovatsion funksiyalari milliy ta'lim tizimini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'limning zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor yo'nalishi doirasida xalqaro ta'lim standartlariga (ISCED 2011) muvofiq ta'lim dasturlarini klassifikatsiyalash, xalqaro standartlarga (ISCED 2013) muvofiq milliy, tarmoq va kasbiy sohaslar asosida darajali oliy ta'lim klassifikatorini shakllantirish, o'quv jarayoni mazmunini xalqaro oliy ta'lim sohasidagi ta'lim sifatini ta'minlash standartlariga (ESG) muvofiqlashtirish, kredit-modul asosida ta'lim sifatini ta'minlash (ENQA) va malakani sertifikatlash qilish tizimini moslashtirish zarurati asoslab berilgan;

Yangi O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirishni nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishda sun'iy intellekt va rabototexnikaning, biotexnologiyalar rivoji dunyo foyda miqdorining oshishiga, iqtisodiy o'sishning barqarorlashuviga, xavfsiz ish o'rinlari yaratishga xizmat qilishi aniqlashtirilgan;

oliy ta'limda olib borilayotgan islohotlarda universitet ta'limi orqali bo'lajak kadrlar ilmiy salohiyatini rivojlantirish, inson kapitalini boyitish va kuchaytirish, ilmiy-nazariy bilimlarga bo'lgan rag'batni oshirib borishda innovatsion ilmiy metodlardan samarali foydalanish, nochiziqli tafakkur metodini raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda qo'llashga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib,

tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim istiqbolini modellashtirish uchun nazariy-metodologik asos, ta'lim strategiyasini ilmiy asoslashda, oliy ta'lim tizimining milliy g'oya va qadriyatlarga mos keladigan strategiyasini ishlab chiqishda, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tishda, talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ta'lim institutlari, oliy ta'lim muassasalari va davlat, jamoatchilik tizimlari va ma'naviy-ma'rifiy markazlarning so'rovlar o'tkazish, oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shaffoflik, xolislik va obyektivlikni ta'minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirishga qaratish, "Maktab — ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i" konsepsiyasi doirasida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo'naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash hamkorligini rivojlantirishda, ta'lim tizimini takomillashtirishga oid darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning milliy g'oyani yuksaltirishdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida:

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi oliy ta'limni isloh etishga oid insonga o'z salohiyatini namoyon qilish imkoniyat yaratishi, ta'lim uchun qulay muhit berilishini ifoda etishi kabi maqsadlarning milliy g'oyaning antropotsentristik (ilm-fan, madaniyat va san'atni gumanistik qadriyatlar bilan sug'orish) tamoyillariga uyg'unlashuvi hamda Renessans davriga xos xususiyat (inson huquq va erkinliklarini ta'minlash) va ilm-fan va ma'rifatning qadriyat darajasiga ko'tarilganligiga doir taklif, tavsiya va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-ragamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning kontseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" amaliy loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda hamda "60220500 - Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishining malaka

talabi mazmuniga singdirilgan va “Filosofiya” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 23-dekabrda 04/11-13999-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 14-maydagi 02/01-01-41-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarga ta‘lim falsafasining mazmun-mohiyati ochib berilishiga, dunyoqarashi yanada kengayishiga, ijtimoiy-siyosiy islohotlarda, uchinchi yangi avlod universitetlarda tahsil olayotgan yoshlarning raqobatbardosh kadrlar bo‘lib shakllanishida ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

jamiyatda “uchinchi va to‘rtinchi avlod universitetlari” ochiq tizimga xos faoliyat (ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish), tizimlilik (zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash), in‘ikos (davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar yoshlarni kamol toptirish) kabi asosiy g‘oyalarning milliy g‘oya yuksalishi hamda shaxs ma‘naviy axloqiy kamolotini shakllantirishdagi o‘rniga doir taklif, tavsiya va xulosalardan Respublika Ma‘naviyat va Ma‘rifat markazining 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma‘rifat targ‘iboti” 13-bandi “Yangi ma‘naviy makonni shakllantirishning dolzarb masalalari, bu borada ma‘rifatparvar, ziyolilar, davlat va jamoat faollarini birlashtirish hamda “Yangi O‘zbekiston orzusi”ni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 7-maydagi 195-son ma‘lumotnomasi) Natijada, O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida islohotlar milliy g‘oyani yuksaltirishga, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, talaba-yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus tadbirlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

sun‘iy intellektni oliy ta‘limga joriy etishda maqsadni belgilash (o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish), ma‘lumotlarni yig‘ish va analiz qilish (to‘plangan ma‘lumotlar asosida modellarni ishlab chiqish va prognoz qilish), xodimlarning malakasini uzluksiz oshirib borish omillari ta‘lim tizimini insonparvarlashuviga xizmat qilishiga oid xulosa, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ma‘naviy ma‘rifiy sohadagi faoliyatida, jumladan 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturida keltirilgan “I. Barkamol avlod salohiyatini ro‘yobga chiqarish bobida: 1.1. Ma‘naviy tarbiya va sifatli ta‘lim hamda 1.1.2. Kasb-hunar, oliy va oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim yo‘nalishlari”da keltirilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Markaziy kengashining 2025-yil 24-yanvardagi 02/02-08-son ma‘lumotnomasi). Natijada, partiya tizimidagi xodimlarning ma‘naviy-ma‘rifiy

yoʻnalishdagi bilim va koʻnikmalarini oshirish, oʻquv-uslubiy hamda mafkuraviy targʻibot ishlarining saviyasini yanada boyitishga, yoshlarda milliy oʻzlikni anglash, uzluksiz milliy tarbiya tizimini takomillashtirish, yuksak maʼnaviyatli vatanparvar avlodni tarbiyalashda nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

virtual universitetlarning intellektual konstruktorlik, raqamli laboratoriya, tarmoqli tadqiqot almashinuvi, modellashtirish kabi imkoniyatlarini aniqlash asosida ularning texnika va kadr resurslarini bir joyga toʻplash, mehnat bozori va taʼlim tizimining uygʻunligini taʼminlash, taʼlim eksportiga oid innovatsion funksiyalari milliy taʼlim tizimini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarishiga doir taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali koʻrsatuvlarining ssenariylarini shakllantirishda, jumladan, “Mushohada uchun mavzu” koʻrsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 15-apreldagi 9-son maʼlumotnomasi). Natijada, ilmiy xulosa va takliflar teletomoshabinlarning ilmiy, falsafiy, ijtimoiy dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari boʻyicha 8 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi tavsiflangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qoʻllanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, eʼlon qilinganligi, tuzilishi va hajmi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Uchinchi renessans poydevorini yaratishda oliy taʼlim nazariy-metodologik asos sifatida**” deb nomlanib, ushbu bobda uchinchi Renessans poydevori yaratilishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari; oʻrta asrda Markaziy Osiyoda oliy taʼlim shakllari: madrasalar va akademiyalar, universitet taʼlimining ijtimoiy institut sifatida shakllanish dinamikasi va genezisi tadqiq etilgan. Jahon xalqlari tarixiga oid tadqiqotlar asosida jamiyatda oliy

ta'limga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning Sharqda paydo bo'lganligi, bunday zaruriyat tufayli oliy ta'limning ilk milliy shakli — madrasa va akademiyalar vujudga kelganligi mantiqiy dalillangan.

Movarounnahrda musulmon madrasalari IX asr oxiri va X asr boshlarida, ya'ni Somoniylar davrida qurila boshlagan. Taniqli sharqshunos olim V. Bartold madrasaning vatani Balxga yondosh bo'lganini Amudaryoning har ikki sohilida joylashgan yurtlar deb hisoblaydi⁶. Muhammad Narshaxiyning fikricha, Movarounnahrda birinchi madrasa Buxoroda 937-938-yillarda ro'y bergan yong'indan talafot ko'rgan Farjek madrasasi bo'lganligini aytadi⁷. K. Kattayevning fikriga ko'ra, Samarqanddagi Raboti G'oziyon madrasasi yana ham qadimiyroq bo'lib, unda Imom Moturidiy, Abulqosim Hakim kabilar Muhammad ibn Fazl Balxiydan (vaf. 931-y.) tahsil olgan⁸. Madrasalar paydo bo'lishining tarixiy ahamiyati katta. “Sharq Uyg'onish madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanishida IX-X asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida mavjud bo'lgan Somoniylar davlatining ahamiyati katta. Tarixiy voqe'liklar guvohlik beradiki, har qanday davlatda fan va madaniyatning taraqqiy etishi, o'z navbatida, ushbu jamiyat hayotida ilm-fanning tutgan o'rni va unga berilgan e'tibor bilan belgilangan. Aynan Somoniylar davlati ham mazkur tarixiy haqiqatdan istisno emas”⁹. Somoniylar davrida ilm-fan yuksak darajada taraqqiy etgan. O'sha davrda Samarqand Movarounnahrda fan va ta'lim markazlaridan bo'lgan. Somoniylar davrida “Samarqandda 17 ta madrasa qurilgan bo'lib, unda islom dini va ta'limotidan tashqari dunyoviy fanlar ham o'qitilgan”¹⁰ligi o'sha paytda madrasalarda nafaqat diniy va huquqiy bilimlar, balki dunyoviy bilimlar berilganini ko'rsatadi.

Tadqiqotda O'rta Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilganligi, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilganligi qayd etilgan. Madrasa o'quv kursi, odatda, “Avvali ilm” deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Keyin o'rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi o'qitilgan. Arab tili grammatikasidan so'ng o'quv kursi ikki bo'limga: umumta'lim kursi – “mushkulot” va fiqh kursi – “masala” bo'limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining “faroiz” – meros huquqi qismi bilan birga matematika fani ham majburiy o'quv kursiga kiritilgan. Talabalar o'z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo'limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo'limni o'qib tamomlashlari mumkin bo'lgan. To'liq o'qib o'zlashtirish maqsadida madrasada 137 ta falsafa va huquqqa oid qo'llanmalarni o'zlashtirish talab etilgan. Bular ichida mashhur kitoblar, Markaziy Osiyoning buyuk allomalari kitoblari bo'lgan. Jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to'plamlari, Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid”, Burhoniddin Marg'iloniyning “Al-hidoya fi sharh al-bidoya”, Umar

⁶ Бартольд В.В. Улугбек и его время. -Петроград, 1928. – С.188

⁷ Наршахий, Абу Бакр. Бухоро тарихи. – Тошкент: “Anorbooks”, 2022. – Б.52

⁸ Каттаев К. Қандия. -Тошкент: «Сўғдиёна», 2016. – Б.67.

⁹ Odiljonov U. Somoniylar davlati madaniyati. – Тошкент: Academia.edu, 2023. – Б.211

¹⁰ Абдуллаев В.А., Валиходжаев Б. Дыхане Веков. – Самарканд, 1970. -С.43.

Qazviniyning “Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiya” kabi asarlarini chuqur o‘zlashtirish talab etilgan.

Dissertant fikricha, madrasalar xalqning dunyoqarashini kengaytirishda, ta’lim berishda, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotda juda katta rolni o‘ynagan. Shuni aytish kerakki, madrasalarda ta’lim olgan talabalar xalqimizning boy ma’naviy merosini saqlash bilan birgalikda, ijtimoiy ma’naviy hayotni o‘zgartirishga katta hissa qo‘shgan. Madrasalarda olingan bilimlar natijasida mamlakatda ilm-fan rivojlangan. Madrasa bilimli va o‘qimishli insonlarning ma’naviy qiyofasini shakllantirgan. Bilim asosiy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Diniy va dunyoviy bilimlarning o‘qitilishi mamlakatlarni xurofot va jaholatdan asragan. Madrasalarda asosiy e’tibor ta’limga qaratilganligi, to‘liq ilmiy faoliyat va olimlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishi ilmiy akademiyalar faoliyati bilan bog‘liq hisoblanadi. Madrasalarning shakllanishi va rivojlanishida shubhasiz ilmiy akademiyalar katta o‘rin tutadi.

Dissertatsiyada “Baytul hikma” - Donolar Uyi” nomini olgan akademiyada bir guruh tarjimonlar faoliyat olib borganligi, Sharqda vujudga kelgan ilk akademiyalardan biri Ma’muniy xorazmshohlar davrida tashkil topgan Ma’mun akademiyasida tabiiy-ilmiy fanlar rivoj topganligi izohlangan. XV asrda Ulug‘bek o‘z akademiyasiga asos soladi. Bu akademiya ikki nom bilan tarixga kirgan. “Ulug‘bekning Samarqand akademiyasi” va “Ulug‘bekning Samarqand astronomiya maktabi”. Birinchisi fransuz yozuvchisi va faylasufi Volter tomonidan berilgan bo‘lsa, ikkinchi nomni akademik Qori Niyoziy nomlagan¹¹. Ammo jahon tarixida ushbu akademiya Ulug‘bek akademiyasi sifatida e’tirof etiladi.

XIX asrga kelib Yevropada universitetning bir qator modellari paydo bo‘lgan. Bu modellar ichida fransuz (bonopartcha) va nemis (gumboltcha) modeli keng tarqaldi. Napoleon davriga borib taqaladigan model o‘quv mashg‘ulotlari, ilmiy darajalar berish va talabalar hayoti ustidan davlatning qattiq nazorat o‘rnatishiga asoslangan. Qirollikdagi universitetlarning barchasi yagona tizimga bo‘ysunar va bu davlat manfaatiga xizmat qilardi. Ilmiy darajaning taqdim etilishi davlatdagi ma’lum joyga amaldor bo‘lish imkonini ham bergan. Universitetning nemis modeli V.Gumbolt nomini oldi va Yevropada juda keng tarqalgan. Gumbolt universitetga ilmiy faoliyatni ham kirgizadi. Uning fikricha, o‘qituvchi eski bilimlar berish bilan chegaralanmay, yangi bilimlar yaratishi lozim. Shu bilan birga ushbu model universitetda tadqiqotchi olimlarning ishlashini emas, balki yangi fanlar, jumladan tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar o‘qitilishi kerak degan yondashuvni rivojlantirgan. Ta’lim faqat amaliy ahamiyatga ega emas, balki ijtimoiy, ma’naviy, ilmiy maqsadlarni ham ko‘zlashi muhim. Ta’lim fransuz ta’limi singari nafaqat amaldorlarni yetkazib berishi, balki, professional mutaxassislarni yetishtirib berishi, milliy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilishi va qonunga amal qiluvchi fuqarolarni tarbiyalashi, shu bilan birga fundamental fanlar rivoji uchun shart-

¹¹ Тургунов М. С. Академия Улугбека // Вопросы исторической науки: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Москва, январь 2015 г.). — Москва: Буки-Веди, 2015. — С. 136-137.

sharoit yaratishi kerak. Gumbolt fikricha, ilmiy tadqiqot uchun akademik erkinlik muhim va davlat bu erkinlikni ta'minlashi lozim¹².

Turkistonda oliy ta'limni shakllantirish g'oyasi asosan jadidlar tomonidan ilgari suriladi va bunda I.Gaspirinskiyning g'oyalari muhim sanaladi. "Milliy oliy ta'lim tizimining ikkinchi hozirgi zamon ovro'pacha dunyoviy bosqichi asosan sovet hokimiyatining dastlabki davriga to'g'ri keldi. Uning tamal toshi jadidlar tomonidan qo'yildi"¹³. 1917-yilda Toshkentda universitet tashkil etish masalasi muhokama qilinadi. Dastlab universitetda tarix va filologiya fakultetlari faoliyat boshlaydi. Bir yil o'tgach, fizika va matematika, keyinroq sharqshunoslik, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va texnika fakultetlari ochildi. Bu davrga kelib faoliyat ko'rsatayotgan madrasalar qoniqarsiz deb topiladi va jahon taraqqiyotidan ortda qoladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Uchinchi Renessans shakllanish bosqichida universitet ta'limi transformatsiyasining yangi talablarga moslashuvi global miqyosda bilimlar va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bosqich sifatida, universitet ta'limiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bu davrda universitetlar faqat ilmiy markazlar emas, balki jamiyatni rivojlantiruvchi, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga javob beruvchi tashkilotlarga aylanishi kerak. Universitet ta'limining transformatsiyasi zamonaviy dunyoqarash va pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Innovatsion ta'lim usullarini joriy etish, xususan, o'quv jarayonining interaktiv va kommunikativ xususiyatlarini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, ilmiy va amaliy faoliyatning integratsiyasi universitetning muvaffaqiyatli transformatsiyasi uchun muhim omil bo'ladi. Universitet ta'limini rivojlantirishda multidisiplinar yondashuv, ya'ni turli sohalar va ilmiy yo'nalishlarning integratsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uchinchi Renessans davrida universitet ta'limining global talablarga javob berishi, lekin shu bilan birga milliy madaniyat va qadriyatlarni hisobga olish, o'qitish tizimini modernizatsiya qilish zarurati ko'rinadi. Bu bir tomondan, global raqobatbardoshlikni ta'minlash, boshqa tomondan, o'z xalqining ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Ta'lim tizimi nafaqat bilimlarni tarqatish, balki yangi ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston oliy ta'limi tizimidagi islohotlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimining missiya, maqsad va vazifalari, oliy ta'limdagi islohotlarning milliy yuksalishdagi o'rni hamda globallashuv jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiylashuv xususiyatlari tadqiq etilgan.

Har qanday rivojlangan davlat o'zining milliy ta'limini boshqalarnikidan ustun deb bilishi mumkin. Bu mamlakatning rivoji, millatning o'zini anglashi va milliy g'oyasi orqali erishiladi. Oliy ta'lim tizimi millatning taraqqiyotiga, dunyoqarashiga, madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun har qanday milliy ta'lim o'z missiyasiga, maqsadiga, ideallariga ega bo'ladi va unga yetishish uchun o'z oldiga bir qator vazifalarni belgilaydi. "Jahonda mutlaq ideal

¹² Гумбольдт В. О внутренней и внешней организации высших учебных заведений в Берлине / Пер. С.Шамхалова. -Москва: Неприкосновенный запас. 2002. - № 2 (22). -С.79

¹³ Xolboyev S. Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tashkil topishi. -Toshkent: "Sharq", 2003. -B 31

deb tan olingan ta'lim tizimi yo'q. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Chunki har qanday ta'limning milliy tajribasi har bir xalqning tarixiy va madaniy an'analariga, hayotiy udumlariga, taraqqiyotning siyosiy va iqtisodiy jihatlariga borib taqaluvchi faqat uning o'zigagina xos bo'lgan ko'plab tushunchalarni qamrab oladi"¹⁴. Universitet o'zida uch mustaqil sohani: ta'lim, madaniyat va fanni birlashtiradi. Zamonaviy universitet jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Barcha institutlar ichida universitet o'zida sivilizatsiya va rivojlanishni, zamonaviy jamiyatning o'ziga xos jihatini belgilab beradi. Butun dunyodagi universitetlarni yoshlarning dini, irqi, millati va madaniyatiga qaramasdan birlashtira oladigan yagona maskan, davlat ichidagi kichik davlat hisoblanadi. Shuning uchun ham u o'z missiyasi va maqsadidan tashqari qator qoidalarni ham belgilay oladi.

Dissertatsiyada oliy ta'lim 3 omilni qamrab olishi, maxsus fanlarga o'rgatish, ta'lim (tarbiya) va tadqiqot kabilar muhimligi asoslab berilgan. Universitet kasbiy maktabni, ta'lim dunyosini va tadqiqot muassasasini o'zida jamlaydi. Uch g'oyaning barisi yaxlit mavjudlik. Ulardan biri yo'qolsa, ma'naviyatga intilish ham yo'qoladi. Universitetdagi tarbiya maktab tarbiyasidan farq qiladi. Talabalar o'zini-o'zi tashkil etuvchilardir. Ustozlar bu yerda aniq ko'rsatmalar bermaydi va shaxsiy rahbar hisoblanmaydi. Eng oliy mukofot universitetda bu mustaqillik. Universitetning asosiy vazifasi esa ta'lim sifatida qayd etilgan. Har bir taraqqiyot bosqichida jamiyat o'zgarishi bilan islohotlar yangi an'analarni paydo qiladi. Islohotlar nafaqat davlat miqyosida, balki universitetlarda ham amalga oshirilishi kerak.

Tadqiqotchi fikricha, "Bugungi universitetlar 3-darajali avlod universitetlaridan o'tib, 4.0-avlod universitetlariga qadam qo'yayotganligi aytilmoqda"¹⁵. Sanoat inqilobining tez suratlarda o'zgarishi va yangilanib borishi ta'limning 2.0 ta'limdan 3.0/4.0 ta'limga o'tishini talab etadi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi avlod universitetlari bir-biridan jiddiy farq qiladi. An'anaviy, mumtoz "Universitet 1.0" ("birinchi avlod universitetlari") modelida ta'lim berish ustuvor vazifa sanaladi. Bunda professor-o'qituvchi ma'ruza o'tadi, talaba konspekt yozib boradi. "Universitet 1.0", ya'ni "birinchi avlod universiteti" faqat ta'lim berish makoni bo'lib, uning maqsadi bilim berishdan iborat. Keyinchalik shakllangan "Universitet 2.0" ("ikkinchi avlod universiteti") modeli ta'lim berishga qo'shimcha ravishda ilmiy tadqiqot ham olib borishga ixtisoslashadi. "Universitet 2.0" ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi; bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmatlarini taklif qiladi; sanoat tomonidan buyurtmalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalarga asos soladi. "Uchinchi avlod universiteti" yoki "Universitet 3.0" fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijorlashtirish faoliyati bilan shug'ullanadi. "Universitet 3.0"da tadbirkorlik madaniyati rivojlangan bo'lib, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o'rnatilgan bo'ladi. Bunday universitetda texnologik startaplar yaratilib, patentlar muntazam ro'yxatdan o'tkaziladi. "Universitet 4.0" yoki to'rtinchi avlod modelidagi universitetlar milliy

¹⁴ Abdullayev Yu.N. Xorijiy oliy ta'lim. Tajriba va taraqqiyot yo'nalishlari. - Toshkent: "O'zbekiston", 1999. - B.10.

¹⁵Usmonov S. Universitet 3.0 fan va ta'lim modeli. // <https://yuz.uz/uz/news/universitet-30-tushunchasi-haqida>

iqtisodiyotning sanoat va ishlab chiqarish sohalarini fundamental o'zgartirib, yangi yo'nalishlarni ochish, xarajatlarni maksimal darajada minimallashtirish orqali daromadlarni maksimallashtirish, inson omilini cheklash orqali iqtisodiyotning har bir jabhasini raqamlashtirishga erishish, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yangi innovatsion modellarni taklif qilish bilan shug'ullanmoqda"¹⁶. (Qarang: 1-rasm)

Xususiyatlari	Birinchi avlod universiteti	Ikkinchi avlod universitetlari	Uchinchi va to'rtinchi avlod universitetlari
Maqsadi	Ta'lim	Ta'lim va tadqiqot	Ta'lim, tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llash
Jamiyatdagi o'rni	Haqiqatni topish	Tabiat qonunlarini ochish	Manfaatli bo'lgan narsalarni yaratish
Ta'lim metodlari	Sxolastik	Zamonaviy ilmiy, bir fan doirasida	Zamonaviy ilmiy fanlararo yondashuv asosida
Kimlarni tayyorlaydi	Professionallarni	Professionallarni va olimlarni	Professionallarni, olimlarni, tadbirkorlarni
Miqyosi	Umumiy	O'z davlati doirasida	Global
Ta'lim tili	Lotin, arab	Milliy tillar	Ingliz tili
Asosiy tashkiliy tuzilmalar	Fakultetlar va kollejlar	Fakultetlar	Institutlar
Kim boshqaradi	Rektor	Professorlar	Professional menedjerlar ¹⁷

1-rasm. Uch avlod universitetlarining o'ziga xosligi

Tadqiqot olib borish jarayonida o'tkazilgan so'rovnoma asosida:

- o'qishning yangi va zamonaviy usullarini joriy etish;
- kasbiy qobiliyatlar umumiy madaniyat va axloqqa asoslangan bo'lishi kerak;
- infratuzilmani yaxshilash va tadqiqot tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash

maqsadida 3-avlod universitetlarini moliyalashtirishni ko'paytirish hamda amaliyot va ishga joylashtirish dasturlarini yaratish uchun universitetlar va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish zarurligi asoslangan.

Oliy ta'limning rivojlanishi va taraqqiy qilishi, yangi avlod universitetlarida o'qish va o'z ilmi va mutaxassisligiga mos ish doirasida amaliyot o'tab, ishga joylashish uchun oliy ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar davom etishi va asosiy urg'u ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilishi kerak.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash orqali jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Islohotlar

¹⁶ Sanaqulova B. Oliy ta'limda qilinadigan ishlar ko'p yoki "Universitet 4.0" nimaligini bilasizmi? // <https://zarnews.uz/uz/post/oliy-talimda-qilinadigan-ishlar-kop-yoki-universitet-40-nimaligini-bilasizmi>

¹⁷ Йохансан В. Университет третьего поколения. -Москва: "Олимп-Бизнес", 2016. – С.32

